

To'ra Bobolov: “Guljanoy bizning faxrimiz”



Ahdi qat'iy, matonatli champion sportchilar safida surxondaryolik mashhur bokschi Bahodir Jalolov va para-taekvandochi Guljanoy Naimovalar mamlakatimiz mustaqilligining 30 yillik to'yiga munosib sovg'a - oltin medalni tuhfa etgani qayd etildi.

- Kunchiqar mamlakatdan oltin medalb bilan qaytgan Guljahon bizning faxrimiz, - dedi viloyat hokimi. - Bu g'alaba bilan matonatli champion qizimizni qizg'in tabriklab, yutuqlari bardavom bo'lishini tilaymiz. Uning sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergen onasi Go'zal Tojiboevaga viloyatimiz ahli nomidan minnatdorlik bildiramiz. Guljanoy unib-o'sgan Uzun tumanidagi Mustaqillik mahallasini «Obod mahalla» dasturi doirasida tubdan yangilab, keng, ravon ko'chalar barpo etamiz. Mahalladoshlarining uy-joylarini tartibga keltirib, bu go'shada zamonaviy infratuzilma yaratamiz.

Ayni paytda viloyatda paralimpiya harakatini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga mavjud sport ta'lim muassasalarida paralimpiya sport turlarini rivojlantirish uchun 25 ta sport turlari bo'yicha sport sektsiyalari tashkil etilgani ham yaqqol dalildir.

Prezidentimizning 2021 yil 18 maydagи «Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar natijadorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Shunga muvofiq 28 mingga yaqin nogironligi bor yoshlarni bosqichma-bosqich paralimpiya sport turlariga jalb etish rejalashtirilmoqda.

Tadbirda XVI Paralimpiya o'yinlari oltin medali sovrindori Guljanoy Naimova so'zga chiqib, bunday yutuqni qo'lga kiritishida mamlakatimizda sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor muhim omil bo'lganini e'tirof etdi. Prezidentimiz va muxlislariga musobaqalarda qo'llab-quvvatlab turgani uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Tantanali marosimda Guljanoy Naimova va uning onasi Go'zal Tojiboevalarga esdalik sovg'alar topshirildi.